

This is not registered version of TotalDecConverter

Mish-mishlarning Husanboy o'z fikr-kasbi bilan gaplashmay qo'yganimish. Eng qizig'i, o'sha "ba'zi"lar uning ulfatlarimish.

Qizig'i, Husanboy ular bilan urishmagan, so'kishmagan, bor-yo'g'i choyxonada birga o'tirgan-u...

Bu gaplar, odatdagidek, to'ppa-to'g'ri Sunnat Azlarovichning qulog'iga yetib keldi. U jamoa inoqligi uchun qattiq jon kuydirguvchi odam bo'lgani uchun, bu mish-mishlarning tagiga yetishga qasd qildi.

«Б»Husanboyini chaqiring, - dedi chorlovni eshitib yoniga kirgan kotibasiga.

Oradan ko'p o'tmay, xonaga og'ir musibatga duchor bo'lgan odamday, Husanboy kirib keldi.

- Chaqirtirgan ekansiz?

- Keling. Qulog'imga g'alatiroq gaplar chalindi. Tinchlikmi? - dedi boshliq jiddiy ohangda.

Husanboy stulga og'ir cho'kib, mutelik bilan xo'jayinga termuldi.

- Hamidbek, Habibxon, Hasanboy, yanglishmasam, ulfatlaringiz shekilli, - gap boshladi Sunnat Azlarovich, - nega ular bilan arazlashib yuribsizlar?

- Ha endi, shunchaki, - chaynaldi Husanboy, - arzimagan gap.

Bu uchrashuvga ancha jiddiy tayyorgarlik ko'rgan boshliqqa Husanboyning o'lamsa javobi yoqmadi.

- Nimasi arzimagan, arzimagan bo'lsa, nega bunaqa tumshayib yuribsiz. Duv-duv gap. Jamoada inoqlik yo'q. Bunaqada ishda unumdorlik bo'ladimi?

- Xo'jayin...

- Nima xo'jayin, gapingizdan sezib turibman, hamma balo o'zingizda. Qilgilikni qilib qo'yib...

- Yo'q, - qichqirib yubordi Husanboy, - men hech narsa qilmadim. Ular meni xo'rlashdi. Men shunga chidolmayapman, xo'jayin.

Husanboy yig'lab yubordi. Boshliq buni kutmaganmideki yoki kap-katta erkakning yig'lashi shoshirib qo'ydimi, kalovlanganacha xodimining oldiga o'tdi. Kotibasi damlab qo'ygani achchiq ko'k choydan bir piyola quyib Husanboyga uzatdi.

- Qo'ying, xafa bo'lmang, ular bilan o'zim gaplashaman! Muni iching-da, nima bo'lganini bir boshdan gapirib bering?

Husanboy hiq-hiq qilganicha, choyni ichib, o'pkasini bosib gap boshladi.

- Har yakshanba choyxonada o'tiradigan odatimiz bor. Kechagi yakshanba shaxsan o'zim bozor qildim, anavi tanballar kelguncha dasturxon tuzadim...

Husanboy qarasa, boshliq uni astoydil tinglayapti. Ilhomi kelib ketdi:

- Shu desangiz, dasturxonada yo'q narsaning o'zi yo'q. Parrak-parrak gazaklarni aytmaysizmi... Anavi jonivorlar-chi, tur-turi bilan. Jiyanim Amerikadan men uchun ataylab olib kelgan "Viski"ni ham dasturxonga qo'ygani edim. Turishini ko'rib so'laging oqadi, shishasi uch burchak, besh-olti ordeni, faxriy yorliqlari bor. Qo'lingga olib chayqasang qult-qult qilib ovoz chiqaradi...

Boshliq bu ta'riflarni eshitar ekan, qult etib yutib qo'ydi.

Husanboy davom etdi:

- Shularga qarab o'zimda yo'q quvonib tursam, lop etib xotimimga kecha ertalab "ichmayman" deb bergan va'dam esimga tushib qolsa bo'ladimi. Bilasizmi, xo'jayin, dunyo ko'zimga qorong'i bo'ldi. Lekin o'ylab-o'ylab chorasini topdim. Xotimimga ichmayman deb va'da berganman, astoydil iltimos qilishsa, majburlashsa ham ichmayman, demaganman-ku. To'g'rimi?

- To'g'ri, to'g'ri, - deb yubordi Sunnat Azlarovich.

- Xullas, anavi yaramaslar kelishdi. Piyolaga quyib uzatishganda, xotinga bergan va'damni asta eslatib, til uchida ichmayman, dedim. Nokaslarni jindek xiralik qilar, deb o'ylagandim-da. Qayoqda, shuni kutib turgandek, "Unda ichmaganing durust", deyishdiyu o'zlari...

Shu joyga kelganda, Husanboyning ko'zida yana yosh g'iltillay boshladi. Xo'jayinning ham ahvoli undan yaxshi emasdi. Husanboy hiqillab gapini arang davom ettirdi:

- Ablahlar, hamm-masini ichishdi. Bir qultim ham qoldirishmadi. Na tixirlik qilishdi, na zo'rlashdi.

- "Viski"ni hammi, - deb yubordi Sunnat Azlarovich ko'zlarini katta-katta ochib.

- Uni ham tinchitishdi. Alamimga chidolmay qo'limga ilingan shishani yerga urdimu chiqib ketdim. Axir, o'zbekda oling-oling, shirin qilib bering, qo'limni qaytarmang, degan gaplar bo'lardi-ku, xo'jayin...

Boshliq o'rnidan turib ketdi.

- Yaramaslar. Shunchalik ham shafqatsizlik qilishadimi? Umrin bino bo'lib bunday bag'ritoshlarni ko'rgan emasman. Xafa bo'lmang, uka, bu qilmishlari uchun ham javob berishadi. O'zingizdan ham o'tganda, uka. Xotin deganga bo'lar-bo'lmasga va'da berilavermaydi.

Husanboy ichini bo'shatib, asta o'rnidan turdi. Eshik oldiga kelganida boshliq birdan so'rab qoldi:

- Haligi... jiyaningiz Amerikaga yana borsa kerak-a?